

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14556636>

OJIZNING HAYOT YO‘LI

G‘iyosiddinova Gulzira G‘anijon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

Annotatsiya: Adolati, “haqiqatchi”ligi va shoirlik iste’dodi bilan xalq qalbidan joy olgan Xudoybergan oxund Nizomiddin o‘g‘li Ojiz Xorazmda, Muhammad Rahimxon Feruz II davrida yashab ijod etgan. Ojiz hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar Bobojon Tarroh – Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari”, Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirai shuaro”, Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” tarzkirolaridagi qaydlar asosida berildi. Maqolada Ojizning hayoti va ijodi, mansabdorlik faoliyati, she’rlari ko‘chirilgan devon qo‘lyozmalari haqida so‘z boradi. Ojiz hayoti va adabiy merosi matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Ojiz, qo‘lyozma nusxalar, tazkira, g‘azal, muxammas, musabba’, taxmis.

Abstract: Xudoybergan Akhund who is the son of Nizamiddin, who gained a place in the hearts of the people with his justice, “truthfulness” and poetic talent, lived and worked in Ojiz Khwarazm, under Muhammad Rahim Khan Feruz II. Information on the life and work of Ojiz was given on the basis of notes in the tarzkirols of Bobojan Tarroh – Xodim’s “Khwarezm poet and nawazanda”, Hasanmurod Laffasi’s “Tazkirai shuaro”, Ahmad Tabibi’s “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshahiy”. The article covers the life and work of Ojiz, his career as an official, and manuscripts in which his poems were copied. Ojiz’s life and literary heritage were studied in the aspect of textual and resource studies.

Keywords: Ojiz, manuscripts, tazkira, g‘azal, muxammas, musabba’, taxmis.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitida san'at, adabiyot, tarjimachilik hamda she'riyatning rivoji va takomilida o'ziga xos davr sifatida ko'plab iste'dod sohiblarini o'zida jamlagan. Xon Muhammad Rahimxon soniy – Feruz ham nozikta'b shoir, musiqashunos edi. Feruz farmoniga binoan tuzilgan saroy shoirlari halqasi shoh farmoyishi bilan Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy”da tavsif etilgan bo'lib, tazkirada mazkur davr shoirlaridan 33 tasi haqida ma'lumot beriladi. Shular orasida 16-o'rinda shoir Ojiz shaxsiyati hamda ijodidan berilgan namunalarga duch kelamiz.

“So'zi ham o'zi mo'tamad” Ojiz Urganchda, Niyozmat Arbob (Niyoz Muhammad Arbob) qishlog'ida tug'ilgan. “Majmuat ush-shuaro”da uning tug'ilgan joyi haqida shunday misra keltirilgan: “Ki asli makoni oning Urganch”.

Ojizning tug'ilgan yili haqida manbalarda so'z yuritilmaydi, lekin vafoti to'g'risida Bobojon Tarroh “60 bila 70 yoshlardan o'tub vafot bo'lg'on”ini¹ aytadi. Laffasiy o'z tazkirasida esa shoirni 82 yil umr ko'rganini ta'kidlab, vafotini 1919-yil deb ko'rsatadi². Bu ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, Ojiz, taxminan, 1837-1845-yillar oralig'ida tug'ilgan. Ushbu tazkiralarda shoirning qabri haqida ham mulohazali o'rinlar ko'zga tashlanadi. Masalan, “Tazkirayi shuaro”da shoirning “shogirdlari uni Urganch qal'asida o'zi bino qilgan qorixonasiga dafn etgan³”i xususida ma'lumot beriladi. “Xorazm shoirlari va navozandalari”da esa quyidagicha ma'lumotlar qayd qilinadi: “... shoir Xudoybergan oxun Urganch rayon, Niyozmat arbob qavmida tug'ilishi munosabati bila shu qishloqdog'i qabriston Shoaladdin xo'ja qabristonida qo'yilg'on”. Biroq bu tazkiralardagi fikrlar mulohazali ekanligini ta'kidlash joiz.

Bobojon Tarrohning 1994-yilda e'lon qilingan “Xorazm navozandalari⁴”da Xudoybergan oxundning adabiy nomi Ojiz, uning otasi ismi Nizomiddin degan ma'lumot bor. Shoirning “Ojiz” taxallusini olishiga uning *bir ko'zi ojiz* bo'lgani

¹ Bobojon Tarroh-Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти, 2011. –Б.110-бет

² Лаффасий, Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро (Нашрга тайёрловчи: Бобожонов П.). – Урганч: Хоразм. 1992. –Б.92.

³ Лаффасий, Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро (Нашрга тайёрловчи: Бобожонов П.). – Урганч: Хоразм. 1992. –Б.92.

⁴ Бобоюн Тарроҳ-Ходим. Хоразм навозандалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. –Б. 59

sabab qilib ko'rsatilgan¹. 2011-yildagi nashrda shoirning otasi "*Nizom mulla bo'lgan*"² deyiladi. Lekin taxallusni shoir o'zi tanlagani, shoh "Feruz ham buni qabul qilg'on"³ligi aytiladi. Asarning har ikki nashrida ham Ojizning ijtimoiy kelib chiqishi ruhoniylar oilasidan deb aytiladi. Ojiz "*uzun bo'lyi, sersoqol, yuzi andak chechaktobliroq, so'zlari mazali, saxiy kishi edi*"⁴ deya ta'riflanadi. Shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar Laffasiy tazkirasida berilgan qaydlarga nisbatan Bobojon Tarroh tazkirasida aniqroq aks etgan.

Edi Ojiz ul mufti-yu ham faqih,

Ki yo'q yaxshilig' da anga hech shabih,

- deyiladi Tabibiy tazkirasida. Darhaqiqat, Ojiz ham ilmiy, ham ilmiga bo'amal bo'lgan shaxs edi. Buni Xodimning tazkirasidagi Xudoybergan oxund haqida keltirilgan hayotiy voqealar ham isbotlaydi: Isfandiyorxon hukmronligi davrida uning tarafdorlari "Dom sivit"⁵ a'zosi bo'lgan Nazir Sholikorov bilan Polvon Xojini "shariatni yo'q, deyishdi", deya ayblaydi va o'sha paytda qozi lavozimida bo'lgan Xudoybergan oxund – Ojizga ajrim uchun azrga boradilar. Qozi: "Nazirboy, Xoji bobo, sizlar shariatni yo'q deb aytibsizlar" deganida, ular: "Bizlar shariatni yo'q deb aytmaduq, shariatni hukmi yo'q deb aytduq", deb javob beradilar. Xudoybergan oxund "bular shariatni yo'q deb aytmalar" deb da'voni bartaraf qiladi va har ikkala tomonga javob beradi. "Demak, Xudoybergan oxunni mansabdor bo'lib turg'on vaqtida xalq bila aloqasi juda ham yaxshi edi. Agarda xalqparvar bo'lmasa edi, Isfandiyorning tarafdorlarini so'zini e'tiborg'a olib Nazir bila Polvon Xojini javobgar qilardi. Shuni qilmadi. Xudoybergan oxun haqiqatchi odam edi"⁶. Ushbu voqea Polvonniyoz Hoji Yusupovning xotira daftarlarida ham qayd etilgan: "O'zlaringiz insof va diyonatlaringizga havola qilib o'ylanglar, man shariat yo'q turur, deb

¹ Bobojon Tarroх-Ходим. Хоразм навозандалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. –Б. 59

² Bobojon Tarroх-Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти, 2011. –Б.103

³ Bobojon Tarroх-Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти, 2011. –Б. 103

⁴ Bobojon Tarroх-Ходим. Хоразм навозандалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. –Б. 60

⁵ **Qarang:** Ruscha "dom sovet" – kengash uyi

⁶ Bobojon Tarroх-Ходим. Хоразм шоирлари ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти, 2011. –Б.105

ayturmanmi? - dedim. Ul vaqtda qozikalon Xudoybergan oxun javob berdi: - San shariat yo‘q deb aytur deb hech e‘tiqod qilmasmiz, - dedi.”¹ “Ojiz kamtarin, yumshoqtabiat, va olijanob inson bo‘lgan. Ezgulik shiori bo‘lgan shoir qo‘lidan kelgancha kishilarga yaxshilik qilgan, she‘rlari bilan ko‘ngillarni obod qilishga uringan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Tabibiy yaxshilikda unga o‘xshashi yo‘q, deb ta‘riflagan”².

Ojiz qishloqdagi eski maktab va Xivadagi madrasalardan birini tamom qilgan. So‘ngra madrasada oxunlik vazifasida ishlagan. Ko‘plab shogirdlar chiqargach, keyinchalik muftilik, so‘ngra qozikalonlik martabasiga ko‘tarilgani qayd etilgan. Bobojon Tarroh aytadiki: “Ilmiy darajasi birinchi darajada desa mumkin”. Uniung fors-tojik hamda arab tilidan yaxshi xabardor ekanligi, biroq “xat yoza bilmasligi” haqida ham fikrlar bor³. Bizningcha, Ojiz shuncha ilmlarni o‘zlashtirgan, yozishni bilgan biroq xattot bo‘lmagan, xattotlik bilan shug‘ullanmagan. Shuning uchun uning devonlarining avtograf varianti mavjud emas. Ojiz o‘z she‘rlarini xat yozishni biladigan shogirdlariga aytib yozdirgan. O‘zi esa madrasa ta‘limi bilan shug‘ullangan.

Ojiz shoirlik bilan shug‘ullana boshlagan paytda 45-50 yoshlardan o‘tgan edi, deb aytiladi, Xodim tazkirasida. Bu haqida qiziq bir voqea ham bor. Kunlarning birida Muhammad Rahimxon Feruz II Xudoybergan oxund she‘r ijod qilgan yoki qilmaganini mulozimlaridan so‘rab qoladi va buni aniqlash uchun shoir huzuriga Bobojon Tarroh-Xodimni yuboradi. U Ojizning huzuriga she‘r yozgan yoki yozmaganiga aniqlik kiritish maqsadida boradi. Ojiz Bobojon Tarrohgа shunday javob beradi: “O‘g‘lim, mani oqshom ko‘rgon dush⁴um yodimdan chiqadi, man nechuk she‘r ayta bilaman?!” Bu gap xonga yetkaziladi. Ittifoqo, o‘sha paytda bu voqeadan bexabar holda savdogar Muhammad Vafo karvonboshi saroyga kirib keladi. Karvonboshi podshoh huzurida ko‘p bo‘lar edi, she‘riyat to‘g‘risida ham

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/polvonniyozhoji-yusupov-yosh-xivaliklar-harakati>

² Matkarimova S. (2007). Табибий— тазкиранавис. (91-б). Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.

³ Бобожон Тарроҳ-Ходим. Хоразм навозандалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. –Б. 104

⁴ tush

suhbatlarda ishtirok etar edi. Shunda Muhammad Vafo xonga Xudoybergan oxundning ham karvonboshi o'zi qurdirgan madrasa peshtoqiga bir ta'rix aytib (ijod qilib) berganini, she'r juda yaxshi chiqqanini aytib qoladi. Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan ta'rix qog'ozga ko'chirilib, xon saroyiga olib keltiriladi. Feruz ta'rixni o'qib ko'rgach, she'r Xudoybergan oxundga tegishli yoki unday emasligini bilish uchun yana kishi yuboradi. Qo'llarida qog'oz tutgan xon odamlarini ko'rgan Ojiz, dastlab, hayron bo'ladi. She'rni o'qib ko'rganidan keyin esa hushidan ketadi. Birozdan so'ng o'ziga kelgan shoir "bu mening also yodimda yo'q edi. Endi men Muhammad Rahimxon Ikkinchiga yolg'onchi bo'ldim" deya ko'ziga yosh oladi. Ta'rix muallifi, haqiqatda, Xudoybergan oxund ekanini xonga yetkazganlarida xon g'azabga minadi. "Bu ulamoni o'ldirmoq kerak. Man so'rag'onda mani kecha ko'rgon dushum yodimda turmaydi, men nechuk she'r ayta bilaman, deb mango aytti. Ikki pullik charchi¹ga aytib beradi", deya shoirni o'limga hukm etadi.

Shoirning zamona podshosiga emas, balki oddiy bir savdogar uchun she'r ijod qilishi shohni g'azabga keltirgan edi. Biroq mulozimlar ulamoni o'ldirmoq joiz emasligini aytib xonni bu ishdan qaytaradilar. Ojiz uchun yengillashtirilgan jazo Arabxon madrasasi oxundligidan bo'shatilishi bo'ladi. Oradan olti oy o'tgach, Qibla Tozabog'da otlarni tomosha qilib o'tirgan Muhammad Rahimxon II Xudoybergan oxund ijod qilgan she'rlaridan keltirishni buyurib yana odam yuboradi. Keltirilgan she'rlarni o'qir ekan Feruz she'r go'zalligidan ta'sirlanadi va shoirni biror mansabga tayinlash haqida buyruq beradi. Voqea so'ngida shoh Feruz Ojizni avvaliga Sherg'ozixon madrasasiga vaqtinchalik muddatga, keyinroq Muhammad Aminxon madrasasiga oxund qilib tayinlaydi.

Xudoybergan Ojiz Xorazm olimlarini yig'ib suhbat qilishni sevar edi. Lekin Ojiz soz ilmi, ya'ni musiqa asboblari cholg'usidan bexabar bo'lgan.

So'z shoirning ijodkorlik mahorati haqida ketganida quyidagi baytni yodga olish kifoya:

Aruz-u qavofi maoniy ango,
Erur o'ylakim, abjad-u ibtido².

¹ Qarang: mayda-chuyda sotuvchi

² ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди, инв. № 1152.

Tabibiyning shoirlarga baho berishda qo‘ygan me‘zonlari, xususan, ijodkorning badiiy saviyasi, qofiya ilmidan boxabarligi, she‘r va uning ma‘no nozikliklaridan voqif ekanligi kabi talablarini inobatga olganda, ushbu ta‘rif shoir Ojizni ancha yuqori ko‘targanini sezish mumkin. Shoir Ojiz nafaqat fiqhda, balki so‘z ilmi, she‘riyatda ham katta bilim va iste‘dodga ega edi. Buni “Yana ul Ojizi muftiyi peshvo, Ki solla-masoil bor oson ango”, “Ki bordur aliym-u fahiym-u faqiyh”, “Ki bor ilmi qol onda chandon ziyod”, jumalari va quyidagi misralar ham isbotlaydi:

Dog‘i Ojiz ul mufti nek kor,
Ki ko‘b bor onga fiqhda iqtidor.

Tun-u kun ilmi mudarris erur,
Onga ilm asosiy havas erur.

Hama madrasa ichra shogirdi ko‘b,
Bu ash‘orni ham demish asru xo‘b¹...

Yoxud Tabibiy uni “muftiyi kordon” – “bilimli, tajribali din ulamosi” deya alqaydi:

Dog‘i Ojiz ul muftiyi kordon,
Masoil aro qilg‘usi so‘z bayon.

Feruzning g‘azallariga payrav yozgani hamda shoh Feruzning shoirga o‘zgacha nazar bilan qaraganini Laffasiy shunday jumla bilan izohlaydi: “...maqbuli ta‘b Feruz bo‘ladur...”. Laffasiyning “Ammo Ojiziyning har bir she‘rlari zohiran ishqi majoziy bo‘lsa-da, asli haqiqatda ancha ma‘ni ... ijod qiladur” degan so‘zlariga qaraganda, shoir Ojiz zohiran ishqi majoziy she‘rlar bitsa-da, ijodkor nazmining botinida ishqi haqiqiy turishiga ishora qiladi.

Shoir devoni qo‘lyozmalari O‘zR FAShI fondida asosiy fondida 906/4, 908/I, 6700 raqamlari bilan saqlanadi. Masalan, 908/I raqamli “ديوان عاجز” - “Devoni Ojiz”

¹ ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди, инв. № 1152.

– qo‘lyozmada Ojiz, Doir, Haqir, Xokiylarning ijod namunalari o‘rin olgan. Ojiz devonida g‘azal, muxammas, musabba’, qasida kabi janrlar uchraydi.

Adabiyotshunos va matnshunos S.Madirimova “Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi” nomli monografiyasida 1127 raqamli bayozi muxammasotda 34 nafar, 1129 inventar raqamli bayozi muxammasotda esa 20 nafar shoirning muxammaslari kiritilganini ma’lum qiladi¹. E’tiborlisi ularning orasida Ojizning ham muxammaslari kiritilganligidir. M.Berdimurodova “Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy davri” monografiyasida ham Ojiz bir qator shoirlarning g‘azallariga taxmis bog‘laganini aytib, Rojiyning ikkita g‘azaliga muxammas bog‘lagani haqida ma’lumot keltirgan².

Gulsara Ismoilova o‘z dissertatsiyasida Ojiz saroy muhitiga moslashgan, she’rlarida o‘sha sharoit ruhiyati, manzaralarini aks ettirganini aytadi³. Hattoki amir-amaldorlardan shikoyatlar qilib, she’rlar bitgan shoirlar⁴ qatorida sanaydi. Laffasiyning tazkirasida ham Ojiz Xiva qoziligidan bo‘shatilgan paytda “Xiva umaro-vuzarolaridini shikoyatlar qilib, ularni hamma vaqtlar mazammatlar etib turar edi” deyiladi⁵.

Shuningdek, Ojiz ijodida:

Ey ko‘ngul, g‘am chekma, darding aylaram darmona arz,

Husn bo‘stonida bitgon ul guli rayxona arz.

Yoki

Gul yuzing ko‘rmakka bo‘lmish, mahvasho, gulzor zor,

Furqat ichra yig‘laram bulbul kabi men zor-zor⁶, - singari go‘zal baytlarni uchratish mumkin.

¹ Madirimova S. (2021). Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi. (187). f. f. b. f. d. (PhD) diss. Toshkent.

² Berdimurodova M. (2013). Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy davri. Ha’eti. Adabiy merosi. (16-6). f. f. b. f. d. (PhD) diss. Toshkent.

³ Ismoilova G. (1995). Feruz davri Xorazm adabiy muhiti. (35- b). Filol. fan. nomz. diss. Toshkent

⁴ Ismoilova G. (1995). Feruz davri Xorazm adabiy muhiti. (37- b). Filol. fan. nomz. diss. Toshkent

⁵ Laffasiy, Hasanmurod. Tazkira-i shuaro (Nashrga tayyorlovchi: Bobojonov P.). – Urganch: Xorazm. 1992. –B.92

⁶ ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди, инв. № 908.

Xulosa qilib aytganda, Xudoybergan oxund hayoti va ijodi maxsus o'rganilmagan. Ushbu maqolada uning biografiyasi birinchi bor monografik reja asosida o'rganildi.

Ojiz hayoti hamda ijodiy faoliyatini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish hozirgi kun uchun muhim masalalardandir. Zero, o'zbek xalqi o'z alloma-shoirlarini yaxshi bilishi va ular bilan faxrlanishi bir iftixordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лаффасий, Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро (Нашрга тайёрловчи: Бобожонов П.). – Урганч: Хоразм. 1992.
2. Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм навозандалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994.
3. Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти. 2011.
4. Исмоилова Г. (1995). Феруз даври Хоразм адабий муҳити. (141). Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.
5. Маткаримова С. (2007). Табибий - тазкиранавис. (136). Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.
6. Бердимуродова М. (2013). Мухаммад Юсуф Рожий Хоразмий давки. Хаёти. Адабий мероси. (152). ф. ф. б. ф. д. (PhD) дисс. Тошкент.
7. Мадиримова С. (2021). Мутриб Хонахароб ва унинг адабий мероси. (187). ф. ф. б. ф. д. (PhD) дисс. Тошкент.
8. Мадиримова, С. (2017). Мутриб девонининг кулезма манбалари. in *Library*, 17(2), 424-426.
9. Мадиримова, С. (2022). Мутриб хонахароб ва унинг адабий мероси. *Каталог монографий*, 2(2), 3-137.

10. Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. American Journal Of Philological Sciences, 3(04), 41-47.
11. Мадиримова, С. (2022). Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili. Узбекистан: язык и культура. Литературоведение., 1(1), 15-26.
12. Madirimova, S. M. (2024). Principles of Creating Scientific-Critical Texts of Mutrib's Works. SPAST Reports, 1.
13. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди, инв. № 1152.
14. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди, инв. № 908
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/polvonniyozhoji-yusupov-yosh-xivaliklar-harakati> .